

Date: 5thNovember-2024

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MA`MURIY HUQUQBUZARLIKLARNI
ELEKTRON TARTIBDA YURITISHNING AHAMIYATI**

G‘ulomov Asadbek Nizomiddin o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-o‘quv kursi 314-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada profilaktika inspektorining asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan ma`muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni elektron tartibda yuritishning ahamiyati, uning huquqiy asoslari, samaradorlikdagi o‘ziga xosligi, ushbu sohada vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimi hamda bu sohadagi xalqaro xorijiy davlatlar tajribalari yoritib berilgan.

Annotation: In this scientific article, the importance of conducting cases of administrative offenses electronically, which is one of the main tasks of the preventive inspector, its legal basis, its uniqueness in efficiency, the problems that arise in this area and their solutions, and the international standards in this area experiences of foreign countries are highlighted.

Ma’muriy ishlarni yuritishda qonunlarning ijrosi ustidan prokuror nazorati «E-ma’muriy ish» tizimi orqali amalga oshirilishi mumkin. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 8.07.2021 yildagi «Ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar haqida»gi 431-son qaror qabul qilingan.

Hujjat Prezidentning 5.10.2020 yildagi «Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6079-ton hamda 24.11.2020 yildagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6118-ton Farmoni ijrosini ta’minalash maqsadida qabul qilingan.

Nizomda quyidagilar nazarda tutiladi:

- ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ish hujjatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish hamda ularni ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish va ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organlariga elektron shaklda yuborish tartibi;
- huquqbazarlik sodir etgan shaxs, jabrlanuvchi, guvoh va xolislar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni to‘plash, saqlash va tahlil qilish qoidalari;
- vakolatli organlar o‘rtasida idoralalararo axborot almashishning yagona markazlashtirilgan elektron tizimini yuritish tartibi;
- ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni vakolatli organlar tomonidan joyida planshet va kompyuter yordamida rasmiylashtirish tartibi;
- ma’muriy bayonnomha va ma’muriy jazo qo’llash to‘g‘risidagi qarorni elektron shaklda rasmiylashtirish qoidalari.

Ichki ishlar vazirligi «E-ma’muriy ish» tizimini tashkil etish, uning sifatli va uzluksiz faoliyat ko‘rsatishini ta’minalash bo‘yicha mas’ul organ hisoblanadi.

Quyidagilar belgilandi:

Date: 5th November-2024

- «E-ma'muriy ish» tizimini yuritishda ma'muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlar guvoh, jabrlanuvchi, xolis va huquqbuzarning shaxsi elektron raqamli imzodan (barmoq izi yoki grafik imzodan) foydalangan holda identifikasiya qilinadi. Ishni ko‘rib chiqayotgan vakolatli organlarning mansabdor shaxslari tomonidan ma'muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlar va ishga taalluqli hujjatlар QR-kod bilan tasdiqlanadi;
- ma'muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxslar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni vakolatli organlar tomonidan tekshirish, zarur ma'lumotlarni olish va ulardan foydalanish «E-ma'muriy ish» tizimi orqali amalga oshiriladi;
- «E-ma'muriy ish» tizimidagi ma'lumotlar vakolatli organlarning mansabdor shaxslari foydalanadigan ma'lumotlar hisoblanadi hamda ular ushbu ma'lumotlar bilan faqt qonunchilik hujjatlari bilan zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun tanishishi va foydalanishi mumkin.

2021 yil 1 sentyabrga qadar Moliya vazirligiga Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, MB, Oliy sud, Bosh prokuratura, IIV bilan birgalikda sud qarori bilan yoki boshqa sabablarga ko‘ra bekor qilingan ma'muriy jarimalarni yoki kamaytirilgan jarimaning farqi summasini avtomatlashtirilgan tarzda fuqarolarga qaytarish mexanizmini yaratish topshirildi.

Shuningdek, 2021 yil 1 sentyabrga qadar Transport vazirligiga Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda «E-ma'muriy ish» tizimidan foydalangan holda avtotransport vositalarini jarima maydonchalariga qo‘yish va ularni chiqarish tartibini elektron formatga o‘tkazish topshirildi.

Unga ko‘ra, ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxslar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni vakolatli organlar tomonidan tekshirish, zarur ma'lumotlarni olish hamda ulardan foydalanish «E-ma'muriy ish» tizimi orqali amalga oshiriladi.

Ichki ishlar vazirligi «E-ma'muriy ish» tizimini tashkil etish, uning sifatli va uzlusiz faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash bo‘yicha mas‘ul organ etib belgilandi.

Qarorga ko‘ra, ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxslarga hamda protsessning boshqa ishtirokchilariga (jabrlanuvchi, guvoh, xolislari va boshqa ishtirokchilarga) ishni ko‘rib chiqish vaqtini va joyi haqida elektron xabarnoma yuborish mexanizmi ishlab chiqiladi.

Nizomga ko‘ra, quyidagilar ma'muriy ishlarni yuritishda hisobga olish elektron hujjatlari hisoblanadi:

- ma'muriy bayonnomasi;
- ma'muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror.

Ma'muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror «E-ma'muriy ish» tizimi orqali elektron hujjat shaklida chiqariladi hamda ijro etish uchun huquqbuzarga yetkazib beriladi. Shuningdek, avtomototransportlarni jarima maydonchalariga qo‘yish hamda chiqarish sud yoki vakolatli organlarning tegishli qarori asosida «E-ma'muriy ish» tizimidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Date: 5th November-2024

Agar ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror chiqarilgan kundan boshlab 3 oy davomida ijro etishga qaratilmagan bo'lsa, bunday qaror ijro etilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamon rivojlanib borishining o'zi IIO lari sohasida ham zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishni talab qilmoqda. Bu esa profilaktika inspektorlaridan huquqiy bilimlarni puxta egallash bilan birgalikda, zamonaviy texnologiyalardan ham foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirishni talab qiladi.